



Challenges in representing gender in literary translation

Nilufar ERGASHEVA¹

Armed Forces of the Republic of Uzbekistan under the Ministry of Defense

ARTICLE INFO

Article history:

Received December 2024

Received in revised form

15 December 2024

Accepted 25 January 2025

Available online

15 February 2025

Keywords:

gender translation,
literary translation,
gender neutrality,
linguistic differences,
cultural adaptation,
gender stereotypes,
translator's decisions,
feminist translation,
gender identification.

ABSTRACT

This article examines the challenges of representing gender in literary translation. Key issues include linguistic differences in gender systems, the complexity of maintaining gender neutrality, the necessity of adapting to cultural contexts, and the impact of the translator's personal perspectives on the translation process. The paper analyzes advanced approaches and methods for overcoming gender-related translation issues and discusses the potential of literary translation in eliminating gender stereotypes.

2181-3663/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss1-pp121-125>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Badiiy asar tarjimasida genderni aks ettirishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

gender tarjimasida,
badiiy tarjima,
gender neytrallik,
lingvistik tafovutlar,
madaniy moslashuv,
gender stereotiplari,
tarjimon qarorlari,
feminist tarjima,
gender identifikatsiyasi.

Ushbu maqolada badiiy asarlar tarjimasida jarayonida genderni aks ettirish bilan bog'liq qiyinchiliklar tahlil qilinadi. Asosiy muammolar qatoriga til tizimlarining gender jihatdan farqliligi, gender neytrallikni saqlashning murakkabligi, madaniy kontekstga moslashish zarurati va tarjimonning shaxsiy dunyoqarashining tarjima jarayoniga ta'siri kiradi. Maqolada tarjimada gender muammolarini bartaraf etish bo'yicha ilg'or yondashuvlar va metodlar tahlil qilinadi hamda badiiy asar tarjimasida orqali gender stereotiplarini yo'q qilish imkoniyatlari muhokama qilinadi.

¹ Teacher, Department of Romance-Germanic Languages, Training Center for the "Partnership for Peace" Program of the Armed Forces of the Republic of Uzbekistan under the Ministry of Defense. E-mail: ergashevanilufar@gmail.com

Трудности отражения гендера в художественном переводе

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

гендерный перевод,
художественный перевод,
гендерная нейтральность,
лингвистические
различия,
культурная адаптация,
гендерные стереотипы,
решения переводчика,
феминистский перевод,
гендерная
идентификация.

В данной статье рассматриваются трудности передачи гендера в процессе художественного перевода. Основные проблемы включают различия в языковых системах по признаку рода, сложность сохранения гендерной нейтральности, необходимость адаптации к культурному контексту и влияние личных взглядов переводчика на процесс перевода. В статье анализируются передовые подходы и методы преодоления гендерных проблем в переводе, а также обсуждается возможность борьбы со стереотипами через художественный перевод.

KIRISH

Tarjima inson tafakkuri va madaniyatlararo muloqotning eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, badiiy asar tarjimasi nafaqat til, balki jamiyatda hukm surayotgan qarashlar va stereotiplarga ham ta'sir ko'rsatadi. Gender masalasi badiiy tarjimada dolzarb muammolardan biri bo'lib, turli madaniyatlarda genderga oid tushunchalar, lingvistik xususiyatlar va ijtimoiy normalarning farqliligi tarjima jarayonini murakkablashtiradi.

Barcha tillarda genderga oid lingvistik va stilistik jihatlar mavjud bo'lib, ularning tarjimada to'g'ri aks ettirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, rus, ispan, fransuz tillarida otlarning jinsiy kategoriya bilan belgilanishi gender neytrallikni saqlashni qiyinlashtiradi. Ingliz va o'zbek tillarida esa gender neytrallik saqlanishi osonroq bo'lsa-da, ba'zan gender aniq belgilangan kontekstlarda tarjimon o'z tanlovini qilishga majbur bo'ladi.

Genderni aks ettirish masalasida tarjimonlarning shaxsiy qarashlari, tarjimaning ijtimoiy ta'siri va feminist yondashuvlarning roli ortib bormoqda. Badiiy asar tarjimasi jarayonida gender muammolari turli jihatlar bilan bog'liq bo'lib, ular orasida gender stereotiplarini tarjimada kuchaytirish, gender neytralligini ta'minlash yoki tarjimada ayol va erkak obrazlarini muayyan madaniy kontekstga moslashtirish kabilar mavjud.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Badiiy tarjima jarayonida gender masalasi ko'plab lingvist va tarjima tadqiqotchilari tomonidan muhokama qilingan bo'lib, bu sohadagi asosiy masalalar lingvistik tafovutlar, madaniy moslashuv va tarjimonning qarorlariga bog'liq.

Genderning tarjima jarayonida qanday aks ettirilishi masalasi, ayniqsa, feminist tarjima nazariyasi va lingvistik jinsiy tafovutlar tadqiqotchilari tomonidan keng o'rganilgan. Suzan Basnett (1993) va Sherri Simon (1996) feminist tarjima yondashuvlarini ishlab chiqib, tarjimon gender tenglikni saqlashi va tarjima jarayonida ayol obrazlarini mustahkamlashga harakat qilishi kerakligini ta'kidlaydi. Ularning fikricha, ba'zi holatlarda tarjimon asl matndagi gender jihatlarini yanada aniqroq aks ettirish yoki ba'zi gender stereotiplarini yumshatish huquqiga ega bo'lishi kerak.

Robin Lakoff (1975) esa ayollar va erkaklar tilidan foydalanishdagi farqlarni o'rganib, ayollar nutqida bevosita xushmuomalalik va noaniq ifodalarning ko'p uchrashini ta'kidlaydi. Uning nazariyasi tarjima jarayonida ayollar nutqiy xususiyatlarini yetarlicha aks ettirish yoki tarjimonning o'ziga xos yondashuviga bog'liq bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

Deborah Tannen (1990) esa erkaklar va ayollar muloqot uslublari o'rtasidagi tafovutlarni o'rganib, ayollar odatda ko'proq hissiyotlarga urg'u berishi, erkaklar esa aniq va maqsadga yo'naltirilgan muloqotdan foydalanishini ta'kidlaydi. Bu esa tarjima jarayonida gender elementlarini qanday qilib to'g'ri aks ettirish masalasini dolzarb qiladi.

Ba'zi tadqiqotchilar tarjimada gender stereotiplari muammosiga e'tibor qaratganlar. Masalan, Irina Zyryanova (2010) genderni oid terminlarni tarjima qilishdagi qiyinchiliklarni o'rganib, turli tillarda genderni aks ettirishning farqlari haqida mulohaza bildirgan.

Gender stereotiplari ommaviy axborot vositalarida keng tarqalgan va bu stereotiplar til vositasida shakllanadi. Fairclough (1995) tomonidan ishlab chiqilgan tanqidiy diskurs tahlili usullari gender stereotiplarining til va ommaviy axborot vositalarida qanday aks etishini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Baker (2013) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar genderning ommaviy axborot vositalaridagi aks ettirilishini o'rganib, reklama va ommaviy madaniyat mahsulotlarida gender rollarining mustahkamlanishini tahlil qiladi. Uning tadqiqotlarida ayollar va erkaklar obrazlari ommaviy axborotda qanday tasvirlanishi va bu tasvirlarning ijtimoiy ongga ta'siri ko'rib chiqilgan.

Ommaviy axborot vositalari orqali gender stereotiplarini kuchaytirish jarayonlari Norman Fairclough va Van Dijk tomonidan o'rganilgan. Ushbu tadqiqotlar jamiyatda gender asosida kamsitishlarni oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

Ta'lim tizimidagi gender muammolari haqida Carol Gilligan (1982) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. U qizlar va o'g'il bolalar ta'lim jarayonida qanday turli qiyinchiliklarga duch kelishini va genderni asoslangan ta'lim yondashuvlarining farqlarini tahlil qiladi.

Hyde (2005) gender tafovutlari haqidagi stereotiplarning maktab va universitetlarda qanday shakllanishini o'rganib chiqdi. Uning tadqiqotlari gender muammolarini ta'lim jarayonida bartaraf etish bo'yicha muhim tavsiyalarni o'z ichiga olgan.

Ba'zi tadqiqotlar genderni oid neytral tilni joriy etish haqida ham fikr bildirgan. Masalan, Cameron (2005) genderni oid neytral terminlarni ishlatish gender diskriminatsiyasini kamaytirishda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi.

Ba'zi tillarda gender aniq bo'lsa, boshqalarida gender neytral iboralar mavjud bo'lishi mumkin. Tarjimonlar ba'zan genderni saqlash yoki neytrallashtirish qarorini qabul qilishi kerak bo'ladi.

The doctor told the patient to take care of his health.

Rus tarjima: *Доктор сказал пациенту, чтобы он заботился о своем здоровье.* (Gender aniq emas, lekin rus tilida "doktor" so'zi odatda erkak sifatida qabul qilinadi.)

O'zbek tarjima: *Shifokor bemorga sog'lig'iga e'tibor berishini aytdi.* (Gender neytral qoladi.)

Ba'zan tarjimon gender tafovutni kuchaytirish yoki kamaytirish qaroriga keladi. Masalan, rus tilida «учитель» (o'qituvchi) so'zi erkak bo'lishi mumkin, «учительница» esa ayol o'qituvchini anglatadi. Ingliz tilida esa *teacher* so'zi gender neytral bo'lib, tarjimada gender tafovuti saqlanmaydi.

Ba'zan tarjimonlar gender tafovutlarni yo'qotib, ayol obrazlarini neytrallashtirishi yoki aksincha, ularni kuchaytirishi mumkin.

Ingliz tili: *She was a strong woman, who never let anyone dictate her life.*

O'zbek tarjima (oddiy yondashuv): *U hech kimga o'z hayotini boshqarishga yo'l qo'ymaydigan kuchli ayol edi.*

O'zbek tarjima (gender tenglikni kuchaytirish): *U o'z hayotini o'zi boshqaradigan, mustaqil va irodali inson edi.*

Bu yerda tarjimaning ikkinchi versiyasida ayolning gender identifikatori saqlanmagan, lekin uning mustaqilligi kuchaytirilgan holda berilgan. Feminist tarjimonlar ko'pincha shunday yondashuvni qo'llab-quvvatlaydi.

Ba'zan badiiy asarlarda gender stereotiplari ochiq yoki yashirin shaklda namoyon bo'ladi. Tarjimon bu stereotiplarni saqlash, yo'qotish yoki o'zgartirish qaroriga kelishi mumkin.

She stayed at home, taking care of the children, while her husband worked.

O'zbek tarjima (an'anaviy): *U uyda qolib, bolalar tarbiyasi bilan shug'ullandi, eri esa ishladi.*

O'zbek tarjima (zamonaviy yondashuv): *U bolalar tarbiyasi bilan shug'ullandi, uning turmush o'rtog'i esa ishlashda davom etdi.*

Bu holatda ikkinchi tarjimada "eri" so'zi o'rniga "turmush o'rtog'i" so'zi ishlatilgan bo'lib, gender tenglikni ko'proq ta'minlaydi.

Ba'zan tarjimada genderning yo'qolishi matnning umumiy mazmuniga ta'sir qilishi mumkin.

Asl matn (Jane Austen, "Pride and Prejudice"): *A lady's imagination is very rapid; it jumps from admiration to love, from love to matrimony in a moment.*

Rus tarjima: *Воображение женщины очень быстрое: оно мгновенно перескакивает от восхищения к любви, от любви к браку.*

O'zbek tarjima: *Ayolning tasavvuri juda tez: u hayratdan sevgiga, sevgidan esa nikohga bir zumda o'tadi.*

Bu misolda tarjimalarda gender to'liq saqlangan, chunki matn aynan ayol psixologiyasiga urg'u beradi. Agar tarjimon genderni neytrallashtirsa, asarning asosiy g'oyasi o'zgarishi mumkin.

XULOSA

Badiiy tarjimada genderni aks ettirish ko'p qirrali jarayon bo'lib, u lingvistik tafovutlar, madaniy kontekst va tarjimon qarorlariga bog'liq.

Lingvistik tafovutlar ba'zan genderni aniq ifodalash yoki uni neytrallashtirish muammolarini tug'diradi.

Madaniy moslashuv esa gender stereotiplarini yumshatish yoki kuchaytirish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Tarjimon qarorlari esa genderga oid ifodalarni saqlash, o'zgartirish yoki neytrallashtirish imkoniyatini beradi.

Badiiy tarjimada genderni to'g'ri aks ettirish, asarning asl mohiyatini saqlash va o'quvchilarga gender tenglik nuqtai nazaridan muvozanatli tarjimini taqdim etish muhimdir. Kelajakda gender tarjimasi bo'yicha yanada chuqur tadqiqotlar olib borish va innovatsion tarjima yondashuvlarini qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Баснетт С. Введение в переводоведение. – Москва: ЛКИ, 2008.
2. Симон Ш. Гендер в переводе: культурное переписывание. – Лондон: Рутледж, 1996.

3. Lakoff, R. Language and Woman's Place. – New York: Harper & Row, 1975.
4. Tannen, D. You Just Don't Understand: Women and Men in Conversation. – New York: Ballantine Books, 1990.
5. Venuti, L. The Translator's Invisibility: A History of Translation. – London: Routledge, 1995.
6. Holmes, J. An Introduction to Sociolinguistics. – London: Longman, 2013.